XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASH
QARORI

2022 - yil 6 - dekabr VI-44-258-3-52-K/22 Paxtakor tuman hokimligi

Tumandagi geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, shuningdek, tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi jami 18 ta geografik obyekt (4 ta ko‘cha, 5 ta bog‘, 2 ta xiyobon, 6 ta qabriston, 1 ta avtoshohbekat) nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklif, davlat ekspertizasiga yuborilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yilning 12-oktabr kuni 08-08894-sonli ekspert xulosasi kelib tushdi. Xulosaga ko‘ra, 18 ta (4 ta ko‘cha, 5 ta bog‘, 2 ta xiyobon, 6 ta qabriston, 1 ta avtoshohbekat) geografik obyekt nomi “Geografik obyektlar to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan. Nomi qonun talablariga muvofiq deb topilgan 18 ta (4 ta ko‘cha, 5 ta bog‘, 2 ta xiyobon, 6 ta qabriston, 1 ta avtoshohbekat) geografik obyekt nomlarini ko‘rib, Kengash tasdig‘idan o‘tkazish uchun kun tartibiga kiritildi.

Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Shukurovning axborotini atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston

Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yilning 12-oktabr kuni 08-08894-sonli, Paxtakor tumani adliya bo‘limining 2022-yil 16-noyabrdagi 1-19/11-7//671-sonli xulosa xatlari hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Shukurovning axborotini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika toponimika xizmati Ekspert komissiyasi xulosasiga ko‘ra 18 ta (4 ta ko‘cha, 5 ta bog‘, 2 ta xiyobon, 6 ta qabriston, 1 ta avtoshohbekat) geografik obyekt nomlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (A.Murunov), Davlat kadastrlari palatasi Jizzax viloyati boshqarmasining Paxtakor tumani filiali (Sh.To‘rayev), tuman arxitektura va qurilish bo‘limi (B.Ne’matov) hamda tegishli mutasaddi va davlat organlariga amaldagi tartibda nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov) nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan hududlarda aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha tuman komissiyasiga nom berilgan va nomi o‘zgartirilgan 18 ta (4 ta ko‘cha, 5 ta bog‘, 2 ta xiyobon, 6 ta qabriston, 1 ta avtoshohbekat) geografik obyektlarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalar bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (R.Zavqiev) mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi qabristonlarga berilgan yangi nomlarni peshlavhalarga joylash va bu ishlarni oxiriga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qurbonov) va “Paxtakor hayoti” gazetasi tahririyati (M.To‘xtasheva)larga O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari

talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy-axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi raisi **A.Ashurov**

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2022 yil 6 dekabrdagi
VI-44-258-3-52-K/22-son qaroriga
1-ilova

Paxtakor tumanida yangi nom berilgan geografik obyektlar to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	"Do‘stlik", "Toshkent" MFY	Sug‘diyona	Sug‘diyona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	"Suvonobod", "Dilorom", "G‘alaba" MFY	Nomsiz	Obihayot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Ko‘cha	"Toshkent", "Do‘stlik" MFY	Abdulla Qodiriy	Abdulla Qodiriy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Ko‘cha	"Samarqand", "Suvonobod" MFY	Buloqboshi	Buloqboshi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Bog‘	"Toshkent" MFY	Nomsiz	Mo‘jiza	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Bog‘	"Chamanzor" MFY	Nomsiz	Yoshlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Bog‘	"Buyuk ipak yo‘li" MFY	Nomsiz	Barkamol avlod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Bog‘	"Paxtakor" MFY	Nomsiz	Kamolot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Bog‘	"Mingchinor" MFY	Nomsiz	Qo‘shchinor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Xotira xiyobon	"Do‘stlik" MFY	Nomsiz	Motamsaro ona	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Xiyobon	"Do‘stlik" MFY	Nomsiz	Mustaqillik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Qabriston	"Oltinko‘l" MFY	Nomsiz	Mangulik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Qabriston	"Bog‘ishamol" MFY	Nomsiz	Qoramirzo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Qabriston	"Nurli Pangat" MFY	Nomsiz	Bo‘ston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Qabriston	"Mingchinor" MFY	Nomsiz	Mingchinor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Qabriston	"Buyuk ipak yo‘li" MFY	Nomsiz	Birodarlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	Qabriston	"Chamanzor" MFY	Nomsiz	Bo‘ldiqiz	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

18.	Avtoshohbekat	Paxtakor shaharchasi	Paxtakor	Paxtakor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.